








YANGILIKLAR

   BuxDUda "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida "Biznes marafon" motivatsion treningi tashkil etildi.

 Bugun universitetda Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti hamda Karyera markazi tashabbusi bilan "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida yoshlarning ilg'or innovatsion g'oyalari hamda startaplarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Biznes marafon" motivatsion treningi bo'lib o'tdi.

 Treningda mehmon sifatida muvaffaqiyatli tadbirkor, "Zahratun" milliy brendi asoschisi Halimov Oybek Haydarovich o'zining "Muvaffaqiyatli biznesni boshlash va bend yaratish" mavzusidagi taqdimoti bilan ishtirok etdi.

Tadbir davomida ishtirokchilar quyidagi yo'nalishlarda qimmatli ma'lumotlar va maslahatlar oldilar:



-  Shaxsiy brend yaratishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar;
-  Boshlang'ich kapital va marketing strategiyalarini belgilash;
-  Real hayotiy misollar asosida tadbirkorlikda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari.







Переслано от




БухДУ • БухГУ • БухСУ



YANGILIKLAR



TANLOV

 "Abdurauf Fitrat" nomli maxsus stipendiya tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlov jarayonlari 3 bosqichda o'tkaziladi ”

→ **1-bosqich:** Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari hamda Abdurauf fitrat hayoti va ijodini targ'ib qilishga bag'ishlangan faoliyatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni me'zonga asosan baholash - 40 ball;

→ **2-bosqich:** Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini keng targ'ib qilishga bag'ishlangan taqdimoti - 40 ball;

→ **3-bosqich:** Abdurauf Fitrat hayoti va ijodiga doir test natijalari - 20 ball.

